

Oltinsoyda madaniyat va san'at kunlari davom etmoqda



Oltinsoy tumanining Gulobod mahallasida joylashgan 18-sonli Bolalar musiqa san'at maktabida el sevgan san'atkorlar, aktyor va so'z ustalari ishtirokida "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" shiori ostida "Ma'naviyat festivali" o'tkazildi.

San'atkorlar tomonidan kuy va qo'shiqlar ijro etildi.

Shuningdek, maktab o'quvchilari ham o'z ijodlarini namoyish etishdi. Ularning chiqishlarini mehmonlar olqishlab, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatladilar.